



## KREDIT TEKNOLOGIYALARI, UNING MAZMUNI VA MOHIYATI. MODULLI O'QITISH XUSUSIYATLARI

*Kazaxbaeva Mexriban*

*Ajiniyoz nomidagi NMPI Pedagogika fakulteti  
Maktab menejmenti 1-kurs talabasi*

*Kakisheva Gulnur*

*Ajinyoz nomidagi NMPI Turkiy tillar fakulteti  
Turkman tili adabiyot 1-D kurs talabasi*

**Annotaciya:** O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limirining kredit modul tizimiga o'tishi haqida

**Annotatsiya:** Mamlakatimizdagi Oliy ta'lim markazlarinin kredit-modul tizimiga otishi, maqsad va mohiyati

**Tayanish sozler:** Ta'lim, kredit, modul, ECTS, UCTS,

Ilmiy texnik taraqqiyotning yanada rivojlanishi, turli mamlakatlardagi olim va mutaxassislarning hamkorligi, ilmiy tadqiqot ishlarning integratsiyasi natijasida amalga oshirilishi mumkin. Fan, texnika va texnologiyaning taraqqiyoti ta'lim taraqqiyoti darajasi bilan chambarchas bog'liqligini e'tiborga oladigan bo'lsak, ta'lim sohasidagi xalqaro integratsiyaning ustivorligi yaqqol muammoga aylanib qoladi.Ta'lim sohasidagi integratsion jarayonlar ilk bor yevropada boshlangan edi. 1989 yilda yevropaning minglab talabalari, yevropa hamjamiyatining ERASMUS (European Community Action Scheme for mobility of University students), Tempus va boshqa dasturlari asosida chet ellarda tahsil olish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Erasmus dasturi bo'yichayevropa hamjamiyati universitetlari o'rtasidagi talabalar almashinushi sxemasi, dastavval 145 oliy o'quv yurtlarini qamrab olgan edi.Erasmus dasturining yutuqlaridan biri bu yevropa univesitetlaridagi o'qitishnatijalarini o'zarotan olish tizimi –European Credit Transfer System (ESTS) ni yaratish, sinash va amaliyotga keng qo'llash deb aytish lozim.Dastlab kredit tizimi 1869 yilda AQShda ishlab chiqildi. Bu tushuncha Charliz Eliot tomonidan kiritilgan bo'lib, 1870-1880 yillarda u ta'lim amaliyotida foydalanildi. 1892 yildan boshlab AQShda bu tizim maktab, kollej, bakalavriat, magistratura ta'limiga tatbiq etildi. AQShda kredit soati o'qish vaqtiga asoslanadi.Bakalavr darajasini olish uchun 4 yilda minimal 120 kredit to'plash, magistr 30-60 kredit bir yilda, doktorlik dasturlarida 3-4 yilda 60-90 kredit soat to'plashi zarur. Oliy ta'lim tizimida kredit dars rejasini tuzishda,o'rtacha ballarni hisoblashda, o'qituvchilar va talabalar yuklamasini hisoblashda asos bo'lib xizmat qiladi.Hozirda Amerika (USCS) kredit tizimi, yevropa kredit tizimi (ECTS) va Osiyotinch okeani (UCTS) kredit tizimlari mavjud.29 ta Yevropa davlatlari ta'lim vazirlari



tomonidan Bolonya deklaratsiyasining imzolanishi (19 iyun 1999 yil) yevropa ta'limga yaratilishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. ECTS yagona yevropa ta'limga yaratishda qo'yilgan bиринчи qadam bo'ldi. 2001 yilda o'quv jarayonini tashkil etishning kredit texnologiyasi -ECTS Yevropaning 1200 ta universitetlarida allaqachon qo'llanilgan edi. Bolonya deklaratsiyasiga ko'ra, diplomlarning, ya'ni o'qitish natijalari yakuniy ko'rsatkichlarining o'zaro tan olinishi muddati -2010 yilgacha deb belgilangan. Keyingi yillarda O'zbekiston Bolonya deklaratsiyasiga qo'shilishni rejalashtirmoqda, bu esa xalqaro bozorda oliy ma'lumotli mutaxassislarning raqobatdoshligini oshirishga qaratilgan. Ushbu masala davlatrahbaritomonidan tasdiqlangan Harakatlar strategiyasini amalga oshirish doirasida ko'rib chiqilgan. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, ushbu deklaratsiyaga amal qilish milliy oliy ta'limga tizimining jahon amaliyoti bilan uyg'un rivojlanishiga xizmat qiladi va kadrlar tayyorlash sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Harakatlar strategiyasida ijtimoiy sohaning muhim vazifalaridan biri uzluksiz ta'limga tizimini yanada takomillashtirish, yuqori sifatli ta'limga xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish va mehnat bozorining zamонавиy talablariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlashni belgilaydi. Masalan, o'quv muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, zamонавиy o'quvva laboratoriya uskunalarini, kompyuter uskunalarini va o'quv qo'llanmalari bilan jihozlash orqali o'quv muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha maqsadli choratadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan. 2017-2021 yillarda oliy ta'limga tizimini tubdan takomillashtirish dasturini ishlab chiqish, o'quv dasturlarini yanada takomillashtirish, pulli xizmatlar ko'rsatish, qo'shimcha moliyalashtirish manbalarini topish asosida ularning vakolatlarini kengaytirish orqali oliy o'quvyurtlarining mustaqilligini bosqichmabosqich rivojlantirish rejalashtirilgan.

Bolonya deklaratsiyasiga kirish uchun qo'yidagi dastlabki talablar qo'yiladi:

- Oliy o'quv yurtigacha 12 yillik ta'limga;
- Ikki bosqichli oliy ta'limga – bakalavriat va magistratura;
- O'quvjarayoni va o'qitishnatijalarini baholash. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2019 yil 8-oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limga tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi»ga ko'ra, mamlakatdagi OTMlarning 85 foizi 2030 yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tishi rejalashtirilgan. Mazkur OTMlarda asosan ECTS kredit-modul tizimi joriy etilishi ko'zda tutilgan. ESTS kredit texnologiyasi asosida tashkil etilishi ECTSda “kredit” atamasi (lot. “creditum” – qarz, “creder” -ishonish) shartli sinov birligi bo'lib, talabaning sinovdan o'tganligi, o'quvyurtida ma'lum bir kursni, o'quv fanining ma'lum bir qismini o'tganligi haqidagi guvohnoma, ma'lumot berish ma'nosini anglatadi. Har bir o'quv faniga ma'lum miqdordagi kredit birliklari ajratiladi. Kredit birliklari soni, talabalarning mehnat sarfiga mos holda belgilanadi. Talabalarning mehnat sarfi –

auditoriya mashg'ulotlari, mustaqil ishlar va o'quv rejasida ko'zda tutilgan boshqa faoliyatlarini o'z ichiga oladi. Ya'ni ECTS kreditlari faqat auditoriya soatlari bilan chegaralanmasdan, talabalarning to'la yuklamasiga tayanadi. Shuning uchun ECTS kreditlarini, talaba mehnat sarfining o'quv fanlari bo'yicha shartli - sonli ifodasi deb hisoblash mumkin. ECTSda kreditlar yig'indisi semestrda - 30, o'quv yilida - 60, bakalavriyatdagi o'quv davrida - 240 ni tashkil etadi. ECTS kreditlari barcha o'quv fanlariga, ya'ni majburiy va talaba tanlovi asosidagi fanlarga taqsimlanadi. Ular mazkur fan bo'yicha kurs loyihalari va ishlarining mavjudligini hisobga olishlari zarur. O'quv faniga ajratiladigan kreditlar miqdori, fanning murakkabligiga va o'zlashtirish darajasiga bog'liqbo'ladi. Ya'ni har qanday murakkab fan ham katta miqdordagi kreditlarga ega bo'la olmaydi. Agarmurakkab fan bilish va tushunishdarajasida o'zlashtiriladigan bo'lsa, kam murakkabli o'quv fani malaka darajasida o'zlashtirilsa tabiiyki oxirisiga ko'proq kreditlar ajratiladi. Shuning uchun turli ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari uchun, bir fanning o'zi turli o'quv dasturlariga va unga muvofiq turli mehnat sarfi va kreditlarga ega bo'lishi mumkin. ECTS quyidagi aosiy tamoyillarga tayanadi:

1. Transferancy – bu ECTS tizimiga xohlagan shaxs yoki tashkilotning to'siqsiz kirishiga shart-sharoit yaratish. Ushbu shartsharoit kuchli axborot targ'iboti vositasida yaratiladi, uning natijasida umumiy yangilik, aniqlikva ochiqlikmuhitishakllantiriladi. Axborot targ'iboti quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Almashish sxemasiga kiritilgan talabalarning o'qish natijalari haqida bir biriga o'z vaqtida axborot yetkazib turish;

- Oliy o'quvyurtlarining o'z axborot paketlari bilan muntazam almashib turishlari, ta'lim xizmatlari doirasida bir birini imkoniyatlarini o'rganish;

- Oliy o'quv yurtlarida, ECTS haqida to'la ma'lumotlarning mavjudligi.

2. Agreement – Talaba bilan ikkala oliy ta'lim muassasasining ECTS koordinatalarini orasida tayyorlash mazmuni, o'qish tartibi va muddatlari, attestatsiya tadbirlari, o'quv rejalaridagi farqni bartaraf etish tartiblari haqida o'zaro kelishuvlarini anglatadi.

3. Credits – Post universitetda (talabani boshqa OTM ga jo'natgan universitet) muvaffaqiyatli o'tilgan barcha fanlar Host (qabul qiladigan universitet) universitetda hisobga olinishi zarur.

4. Ta'limning insonparvarlashuvi – bu shaxsning turli ta'lim xizmatlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishi va ta'lim jarayonida inson qobiliyatining ochilishini anglatadi. ECTS ta'limni davom ettirish uchun oliy ta'lim muassasasini, o'quv fanlarini va o'qituvchilarni tanlash imkoniyatni beradi.

5. Ta'limning individuallashtirilishi – bu har bir talabaning individual reja va ta'lim dasturlariga ega ekanligini ifoda etadi. Talaba tanlovi asosidagi fanlar 70% ni, majburiy fanlar esa 30% dan oshmaydi. Talabaning mustaqil ish hajmi 70% ni,

auditoriyadagi ishi esa 30% tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkichlar individual ta'limga tashkil etishga asos bo'lib xizmat qiladi.

6.Ta'limga samaradorligi – guruhda individual o'qitishga asoslangan auditoriya mashg'ulotlari va talabaning mustaqil ishlarini uyg'unlashtirish orqali ta'minlanadi. Auditoriya o'quvvaqtining 70% gacha qismini individual o'qitishga, shuningdek umumiy o'quv vaqtining 70% gacha qismini mustaqil ishga ajratilishi o'quv fanlarining talabalar tomonidan tabiiy qobiliyatlari darajasida o'zlashtirishga imkon yaratadi. Bu bilan ta'limga samaradorligini ta'minlashga erishiladi."OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISH BILAN BOG'LIQ TIZIMNI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limga tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son hamda "2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son farmonlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. 2020/2021 o'quv yilidan boshlab respublika oliy ta'limga muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish tartibi joriy etilsin.

2.Oliy ta'limga muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin."Oliy ta'limga muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida" NIZOM 1-bob. "Umumiy qoidalar"Ushbu Nizom oliy ta'limga muassasalarida o'quv jarayoniga Kredit to'plash va ko'chirishning Yevropa tizimi (European Credit Transfer and Accumulation System — ECTS) asosida ta'limga kredit-modul tizimini joriy etish tartibini belgilaydi.

Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi oliy ta'limga muassasalari, oliy harbiy ta'limga muassasalariga, O'zbekiston Respublikasi hududida o'z faoliyatini yuritayotgan, nodavlat va xorijiy oliy ta'limga tashkilotlariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

2. Oliy ta'limga muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini bosqichma-bosqich joriy etish ushbu Nizomga ilovada keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

3. O'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etishning tashkiliy masalalariga oid ma'lumotlar, jumladan, ta'limga dasturi, fanlar katalogi, akademik mobillikni ta'minlash, kreditlarni tan olish va ko'chirib o'tkazishga taalluqli hujjatlar hamda diplomga ilovaning shakllari, shuningdek, akademik mobillik davrida talabaning bilim darajasini aniqlash bo'yicha ko'rsatkichlar va boshqa zarur hujjatlar namunalari O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limga vazirligi tomonidan Respublika

oliy ta'lim kengashi bilan birgalikda ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. 2-bob. Asosiy tushunchalar, akademik mobillik — oliy ta'lim muassasasi talabalarining muayyan vaqt mobaynida respublika hududidagi yoki chet eldag'i boshqa bir oliy ta'lim muassasasiga o'qish maqsadida borishi;

mobillik dasturi — ikki yoki undan ortiq oliy ta'lim muassasasi o'rtaida o'zaro ta'lim to'g'risidagi kelishuv asosida tashkil etilgan akademik mobillik dasturi;

kredit — ta'lim olish natijalariga ko'ra talaba tomonidan muayyan fan bo'yicha o'zlashtirilgan o'quv yuklamasining o'lchov birligi. Kreditlar qoidaga muvofiq butun, kasr sonlarda ifodalanishi mumkin;

oliy ta'lim muassasasi — belgilangan miqdordagi kreditlarni tan olishni hisobga olgan holda ta'lim va malaka to'g'risidagi hujjat beruvchi muassasa;

kreditlarni berish — malaka yoki uning alohida qismlariga qo'yilgan talablarga muvofiq erishilgan ta'lim olish natijalariga ko'ra talaba yoki boshqa ta'lim oluvchilarga kreditlarni rasmiy taqdim etish jarayoni;

kreditlarni ko'chirish — talabalarning akademik mobilligini ta'minlash maqsadida bir oliy ta'lim muassasasi ta'lim dasturi bo'yicha olingan kreditlarni boshqa oliy ta'lim muassasasiga ko'chirish va tan olish;

kredit to'plash — ta'lim elementlarini o'zlashtirish va boshqa yutuqlarga erishish natijasida taqdim etiladigan kredit birliklarini to'plash;

talabaning shaxsiy ta'lim trayektoriyasi — talaba tomonidan tanlangan hamda unga ketma-ketlikda bilimlar to'plash va xohlagan kompetensiyalar yig'indisiga ega bo'lish imkoniyatini beradigan yo'naliш (marshrut). Ta'lim trayektoriyasi institutsional hujjatlar va yo'riqnomalar yordamida tuzilishi hamda turli ta'lim trayektoriyalari natijada bir xil malaka olishga olib kelishi mumkin;

ta'lim dasturi — bakalavriat ta'lim yo'naliшi yoki magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'quv jarayonini amalga oshirishga mo'ljallangan ta'limning asosiy xususiyatlari (hajmi, mazmuni, rejlashtirilgan natijalar), tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar, fan dasturlariga quyilgan umumiylablar, shuningdek, ta'limni tashkil etish va amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborot-resurs va o'quv-metodik ko'rsatmalar majmui;

ta'lim dasturi katalogi — oliy ta'lim muassasasi tavsifi, kredit-modul tizimiga kirish, mavjud bakalavriat ta'lim yo'naliшlari va magistratura mutaxassisliklari, xizmatlar va resurslar, o'quv fanlari dasturlari, aniq ta'lim dasturlari elementlari tavsifi to'g'risidagi axborot;

ta'lim natijalari — talaba tomonidan o'zlashtirilgan va baho bilan tasdiqlangan malaka darajasini aks ettiradigan, ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli tugallagach talaba o'zlashtirgan ko'nikmalar va ularni amalda bajarish qobiliyatining tavsifi;

o'qish yuklamasi — talaba tomonidan o'quv faoliyatining barcha turlari — ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar, laboratoriya ishi, kurs loyihasi (ishi), amaliyot

va mustaqil ishni amalga oshirish asosida kutilgan o'quv natijalariga erishish uchun zarur bo'lgan soatlar hajmi;

ro'yxatga olish xizmati — ta'lim jarayonini boshqarish axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlardan foydalanib professor-

o'qituvchilar, xodimlar va talabalar bo'yicha ta'lim jarayoniga oid ma'lumotlar bazasini shakllantirishni, shuningdek, talabalarning barcha o'quv natijalarini ro'yxatga olish, bilimini nazorat qilish hamda ularning akademik reytingini hisoblashning barcha turlarini tashkil etishni nazarda tutuvchi xizmatlar;

ta'lim elementlari — ta'lim dasturining bir qismi bo'lib, ta'lim olish natijalariga erishish va ta'lim dasturida ko'rsatilgan bilimlarni o'zlashtirishga ko'maklashuvchi o'qitish turi;

transkript — ta'lim olishning tegishli davrida o'zlashtirilgan kreditlar va baholarning harf va raqamlardagi ifodasi ko'rsatib o'tilgan fanlar ro'yxatini o'z ichiga olgan belgilangan shakldagi hujjat.Mamlakatimiz OTMlari kredit-modul tizimiga o'tishi bu muayyan miqdordagi kreditlarni yil, semestr va fanlar bo'yicha taqsimlab qo'yishning o'zidan iborat emas. Afsuski, hozirda ayrim OTMlar kredit-modul tizimiga o'tishni shunday tushunishmoqda.Agar kredit-modul tizimi to'g'ri va to'liq joriy etilsa, u mamlakatimiz oliy ta'lim tizimiga juda katta ijobjiy xususiyatlarni olib kirishini kutish mumkin. Jumladan, mamlakatimiz oliy ta'lim tizimiga ta'limning jahon tan olgan mukammal o'lchov birligining olib kirilishiga, OTMlar o'quv dasturlarida muvozanat va me'yor paydo bo'lishiga,OTMlarda o'qish jarayonining shaffoflashishiga, o'quv dasturlari iqtisodiyot, mehnat bozori va talabalar ehtiyojlari asosida shakllanishiga, darslarning sifati yaxshilanishiga va nihoyat har bir talaba ma'lum ma'noda o'zining mustaqil o'quv dasturiga ega bo'lishiga xizmat qiladi.Agar mahalliy OTMlar kredit-modul tizimiga o'tsalar-u, yuqoridagi maqsadlarga erisha olmasalar yoki erishishga harakat qilmasalar, unda OTMlarimiz kredit-modul tizimiga tom ma'noda o'tgan hisoblanmaydi.

### Poydalaniqan odabiyotlar:

1. Sh.S.Shoyimova,M.K.Xoshimova,SH.R.Mirzayeva,M.M.Qo'ziboyeva "Ta'lim texnologiyalari" Toshkent 2020
2. "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida" nizomi.Toshkent shahari 2020-yil 31-dekabr 824-son